



Qirg'izboyeva Shahzoda Ilhom qizi

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademysi kursanti

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FUQAROLARNING HUQUQIY HOLATI, FUQAROLIKKA EGA BO'LISH VA UNI YO'QATISH ASOSLARI

Annotatsiya: Ushba maqola orqali O'zbekiston respublikasida fuqarolik holatlari uning huquqiy asoslari, fuqarolikka ega bo'lish va uni yo'qatish asoslari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Fuqarolik, fuqarolikning huquqiy holati, apadridlar, bipadridlar.

Fuqarolik instituti har bir suveren davlat uchun majburiy hisoblanadi. Fuqarolik jismoniy shaxslar va davlat o'rtasida barqaror siyosiy-huquqiy aloqalar mavjudligini anglatadi. Fuqarolik shaxslarning huquqiy holatini qonun tartibga soladi va uning tegishli huquq-majburiyatlarini yuklaydi.

Biroq fuqarolik maqomi har bir insonga berilmaydi, chunki mamalakatda yashaydiga hamma odamlar ham uning fuqarolari hisoblanmaydi. Boshqa davlatlarda bo'lgani kabi O'zbekistonda ham o'z holatlaridan kelib chiqib vaqtinchalik yoki muntazam yashaydigan lekin fuqarolikka ega bo'limgan odamlar ko'plab topiladi. Bu toifaga xorijiy fuqarolar va umuman biror davlat fuqarosi ekanini isbotlay olmaydigan, fuqaroligi bo'lнagan shaxslar kiradi. Biroq fuqarolikka ega bo'lнagan shaxslar ham qonunlarga to'la rioya qilgan holda O'zbekiston respublikasi hududida istiqomat qilishlari shart. Ular konstitutsiya, qonunlar va xalqaro shatrnomalarda belgilangan majburiyatlarini bajarishlari shart. O'zbekiston Respublikasida vaqtincha yoki muntazam yashab kelayotgan xorijiy davlat fuqarolari va fuqarolikka ega bo'limgan shaxslarni huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan normalariiga muofiq to'la ta'minlanadi. Faqat fuqarolarga tegishli bo'lган siyosiy huquqlara ega bo'lmaydilar, saylash va saylanish, harbiy xizmatga borish kabi huquqlar shular jumlasidandir.

O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 22-moddasida O'zbekiston Respublikasida yagono fuqarolik amal qilishi belgilangan. O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi, unga qanday asoslarda ega bo'lganligidan qat'i nazar hamma uchun tengdir. Qoraqolpog'iston respublikasi fuqarosi ayni vaqtida O'zbekiston Respublikasining ham fuqarosi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqaroligi to'g'risidagi qonun dastlab 1992-yil 2-iyulda qabul qilingan. Uning yangi tahriri 2020-yil 13-mart kuniqabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik to'g'risidagi qonunning 4-moddasiga asosan O'zbekiston respublikasida fuqarolik shaxsning davlat bilan o'zaro huquqlari, majburiyatları va erkinliklarini e'tirof etish hamda hurmat qilishga asoslanadigan doimiy siyosiy-huquqiy aloqasini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari jinsi, irqi, millat, tilli, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqe'idan qat'i nazar, qonun oldida tengdir. O'zbekiston Respublikasidi har bir inson fuqaro bo'lish huquqiga ega. Hech kim O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan mahrum qilinishi, bundan qonunda nazarda tutilgan holatlar mustasno, yoki fuqarolikni o'zgartirish huquqidан mahrum etilishi mumkin emas. O'zbekiston Respublikasi o'z organlari va mansabdor shaxslari orqaqli O'zbekiston Respublikasi fuqarolari oldida mas'uldirlar, O'zbekiston Respublikasi fuqarosi esa davlat oldida mas'uldir. Fuqarolarnning huquq, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish nafaqat O'zbekiston Respublikasi hududida balki, uning tashqarisida ham amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish, O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini tiklash, O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqish yoki O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini yo'qotish



to'g'risidagi qarorlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan farmonlar tarzida qabul qilinadi va imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi.

Fuqarolik to'g'risidagi qonuning 13-moddasi O'zbekiston Respublikasining fuqaroligini olish asoslari O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi quyidagi hollarda olinadi:

tug'ilganlik bo'yicha;

bola farzandlikka olinganda;

O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga qabul qilish va uni tiklash natijasida.

O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida va ushbu Qonunda nazarda tutilgan boshqa asoslarga ko'ra ham olinishi mumkin.

Fuqarolik to'g'risidagi qonunning 14-moddasi O'zbekiston Respublikasining fuqaroligini tug'ilganlik bo'yicha olish

Bola o'zining tug'ilgan joyidan qat'i nazar, agar tug'ilgan paytida:

a) ota-onasi (yolg'iz otasi yoki onasi) O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bo'lsa;

b) uning ota-onasidan biri O'zbekiston Respublikasi fuqarosi, boshqasi esa fuqaroligi bo'lмаган shaxs bo'lsa yoki bedarak yo'qolgan deb topilgan yoxud uning turgan joyi noma'lum bo'lsa;

v) uning ota-onasidan biri O'zbekiston Respublikasi fuqarosi, boshqasi esa chet davlat fuqarosi bo'lsa, tug'ilganlik bo'yicha O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini oladi.

Ushbu modda birinchi qismining "v" bandida nazarda tutilgan holda bolaning O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini olishi faqat O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lган ota-onasining yoxud boshqa qonuniy vakillarining iltimosnomasiga binoan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi hududida tug'ilgan, ota-onasi (yolg'iz otasi yoki onasi) fuqaroligi bo'lмаган shaxslar bo'lган bola tug'ilganlik bo'yicha O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini oladi.

O'zbekiston Respublikasi hududida turgan, ota-onasi noma'lum bo'lган bola O'zbekiston Respublikasi fuqarosidir.

Otasi yoxud onasi O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lган bolaga otalik yoxud onalik belgilangan yoki tan olingan taqdirda, bola, tug'ilgan joyidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqaroligini oladi.

Qonunning 23-moddasi O'zbekiston Respublikasining fuqaroligini tugatish asoslari

O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi quyidagilar oqibatida tugatiladi:

a) O'zbekiston Respublikasining fuqaroligidan chiqish;

b) O'zbekiston Respublikasining fuqaroligini yo'qotganlik.

Fuqarolik tog'risidagi qonuning 25-moddasi O'zbekiston Respublikasining fuqaroligini yo'qotish asoslari

O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi quyidagi hollarda yo'qotiladi:

a) shaxs chet davlatning harbiy xizmatiga, xavfsizlik organlariga, huquqni muhofaza qiluvchi organlariga, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlariga xizmatga kirganligi oqibatida;



- b) agar xorijda doimiy yashovchi shaxs yetti yil mobaynida uzrli sabablarsiz doimiy konsullik hisobiga turmagan bo'lsa;
- v) agar O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish bila turib yolg'on ma'lumotlar yoki soxta hujjatlarni taqdim etish natijasida amalga oshirilgan bo'lsa;
- g) agar shaxs chet davlatning foydasini ko'zlab faoliyat ko'rsatgan holda yoki tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlar sodir etish yo'li bilan jamiyat hamda davlat manfaatlariga jiddiy zarar yetkazgan bo'lsa;
- d) agar shaxs ixtiyoriy ravishda chet davlatning fuqaroligini olgan bo'lsa;
- e) agar shaxs chet davlatning fuqaroligini tug'ilganlik bo'yicha yoxud chet davlat fuqarosi bo'lgan otasining yoki onasining fuqaroligi asosida, voyaga yetmagan yoshida olgan bo'lsa va yigirma bir yoshga to'lguniga qadar chet davlat fuqaroligidan chiqishni rasmiylashtirmagan bo'lsa.

Shaxsning O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini yo'qotganligi uning erining (xotinining) va farzandining (bolalarining) fuqaroligi o'zgarishiga sabab bo'lmaydi deb belgilab qo'yilgan.

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak,fuqarolik masalasi bu doimiy muamolardan biri hisoblanadi.Bu sohadagi turli xil muammolarni hal qilish uchun esa fuqarolik to'g'risidagi qonun loyihasiga o'zgartirishlar kiritilmoqda. Har bir fuqaroni huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarinni himayo qilish borasida so'z borarkan bu boradagi asosiy huquq sohasi hisoblangan fuqarolik huquqiga tayanamiz.Fuqaroligi bo'lмаган шахслар,**ападридлар**-муаъян мamlakatning fuqarosi hisoblanmaydigan va biron chet davlat fuqaroligiga mansubligini isbotlaydigan dalillari bo'lмаган шахслар.Shaxs o'z fuqaroligini yo'qotgan va yangidan fuqarolik huquqini olmagan vaqtida fuqarosizlik kelib chiqadi. Ikki fuqarolik, **бипатридлар**-ayni bir vaqtida ikki va undan ortiq davlat fuqaroligiga mansublik.Aytish joizki O'zbekiston Respublikasida ikki fuqarolik mumkin emas.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi-30.04.2023
2. O'zbekiston Respublika Fuqarolik kodeksi-29.08.1996
3. Ozbekiston Respublikasi Fuqarolik to'g'risidagi qonun-15.09.2020.